

So'x tumani hokimligi Axborot xizmatining M A ' L U M O T I



So'x tumani hokimligi Axborot xizmatining

M A ' L U M O T I

Joriy yilning 29 may kuni soat 05:23 da Feysbuk ijtimoiy tarmog'ida Feysbuk foydalanuvchisi Subxan Isaev imzosi bilan "PREZIDENTU RESPUBLIKI UZBEKISTAN OT IMENI JITELEY SOXSKOGO RAYONA FERGANSKOY OBLASTI" rukni ostida rus tilida maqola e'lon qilingan. Tarqatilgan xabarda So'x tumani bevosita O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi tuman hisoblanib, to'rt tomondan Qirg'iziston Respublikasi bilan chegaradosh bo'lganligi bois, anklav tumanligi ta'kidlangan. So'x tumaniga kirib borish va tumandan Farg'ona viloyat markaziga chiqish yo'llari Qirg'iziston Respublikasi orqali bo'lganligi va yo'llarda qo'shni Respublikaning chegara qo'shinlari va ichki ishlar xodimlari tomonidan ta'magirlik holatlari avj olganligi va bu ishlardan barcha chegara hududi orqali harakatlanadigan yo'lovchilarning sabr kosasi to'lganligi qayd etilgan. Shuningdek, Qirg'iziston Respublikasi orqali o'tadigan avtomobil yo'llarining bir qismi talab darajasida emasligi va toshloq yo'llardan iborat ekanligi ko'rsatilgan.

Koronavirus pandemiyasi davrida chegaralar yopilganligi va ikki tomon bitimiga ko'ra So'x tumaniga olib kelinadigan oziq-ovqat, dori-darmon, yoqilg'i-moylash mahsulotlari va boshqa hayot uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ortilgan mashinalar karvoni haftada bir yoki ikki marotaba o'tkazib kelinayotganligi maqolada ko'rsatilgan. Lekin ikki kundan beri mahsulotlar, asosan oziq-ovqat mahsulotlari ortilgan avtomashinalar Qirg'iziston Respublikasining Qadamjoy nazorat o'tkazish punktida qolganligi ma'lum qilingan. Keltirilgan ma'lumotga ko'ra, mahsulotlar ortilgan yuk avtomashinalar Qirg'iziston chegarachilari tomonidan o'tkazilmayapti, ya'ni mahsulotlarni So'x tumaniga o'tkazish uchun Qirg'iziston Respublikasi chegarachilari tomonidan ta'qiq qo'yilgan.

So'x tumani hokimining chegara masalalari bo'yicha maslahatchisi S. Homidjonovning bergan ma'lumotiga ko'ra, haqiqatan ham - "Tumanda yashovchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib kelayotgan fuqarolar tomonidan viloyatning shahar-tumanlaridan, tuman hududiga olib kelinayotgan mahsulotlarni Qirg'iziston Respublikasi Batken viloyati Qadamjoy tumanida joylashgan chegara-nazorat o'tkazish punkti xodimlari tomonidan o'tkazilmayotganligi to'g'risida fuqarolar tomonidan shikoyatlar bildirilgan.

2020 yilning 29-may kuni Farg'ona tumani Vodil chegara-nazorat o'tkazish punktida So'x tumaniga

o'tish uchun navbatda turgan haydovchilar bilan olib borilgan suhbat davomida Qirg'iziston Respublikasi Batken viloyati Qadamjoy tuman chegara posti xodimlari butunlay yangilanganligi sababli nazorat-o'tkazish punktidan avtomashinalarning harakatlanishi cheklab qo'yilganligi, hozirgi vaqtda Vodil va Qadamjoy chegara-nazorat o'tkazish punkti o'rtasidagi hal etilmagan hududda taxminan 6 ta yuk avtomashinalari navbat kutib turganligi, Vodil nazorat-o'tkazish punktida esa, taxminan 15-20 ta yuk avtomashinalari navbatda turganligi ma'lum bo'ldi".

Sux tumani hokimining chegara masalalari bo'yicha maslahatchisi S. Homidjonovning bergan yana bir ma'lumotiga ko'ra, Qirg'iziston Respublikasi Qadamjoy va Batken hokimligi mutasaddilariga telefon orqali cheklashlarning asosiy sababi so'ralgan, lekin Qirg'iziston tomon aniq javob bermaganligi ma'lum bo'ldi.

Sux tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-05-29 18:32:21